

LINGVOMETODIK KOMPETENSIYA TUSHUNCHASI VA UNING CHET TIL
O'QITISHDAGI O'RNI.

Xoliqova Mahbuba Turdi qizi

Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani 15-maktabining ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Lingvistik va lingvometodik kompetentsiya ikkinchi tilni o'qitish, o'rganish va sinovdan o'tkazishga katta ta'sir ko'rsatadi. Yuqoridagi ikkala kompetentsiyalar bo'yicha ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lsa-da, ular bitta tadqiqotda muhokama qilish uchun birlashtirilmagan. Ushbu maqolada lingvometodik kompetensiya va uning chet tili o'qitish borasida ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu maqolani yozilishidan asosiy maqsad bu - lingvometodik kompetensiya tushunchasining tarixiy kelib chiqishi hamda uning chet tili o'qitishdagi ustuvor vazifalarini o'rganish hisoblanadi.

Kalit So'zlar: Kompetensiya, lingvistik va lingvometodik kompetensiya, metod, didaktika, lingvodidaktika, lingvometodika, til ko'nikmalari, pedagogik-psixologik kompetensiya.

Annotation: Linguistic and linguo-methodical competence have a significant impact on the teaching, learning and testing of a second language. Although many studies have been conducted on both of the above competencies, they have not been combined for discussion in one study. This article presents information on linguo-methodical competence and its relevance to foreign language teaching. The main purpose of writing this article is to study the historical origins of the concept of linguomethodical competence and its priority tasks in foreign language teaching.

Keywords: Competence, linguistic and linguistic-methodological competence, method, didactics, linguistic didactics, linguistic methodology, language skills, pedagogical-psychological competence.

Аннотация: Лингвистическая и лингвометодическая компетенции оказывают значительное влияние на преподавание, изучение и тестирование второго языка. Несмотря на многочисленные исследования, посвященные обеим компетенциям, они до сих пор не были объединены для обсуждения в одном исследовании. В данной статье представлена информация о лингвометодической компетенции и ее значении для преподавания иностранных языков. Основная цель статьи — изучить исторические истоки понятия лингвометодической компетенции и ее приоритетные задачи в преподавании иностранных языков.

Ключевые слова: Компетенция, лингвистическая и лингвометодическая компетентность, метод, дидактика, лингводидактика, лингвистическая методика, языковые умения, педагогико-психологическая компетентность.

Jahonda ta'lim sohasidagi rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda ta'lim standartlarini kompetensiyaviy talablar asosida takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu o'rinda takidlash joizki Yuneskonning "Ta'lim- 2030" Inchxon deklaratsiyasida dunyo bo'yicha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish barcha uchun hayot davomida sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratishga e'tibor qaratilgan.

Yurtimizda ham barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'lim sohasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Har qanday ta'lim jarayoni o'zaro bir-birini taqozo etuvchi o'qitish-o'qish faolyatini ko'zda tutadi. Bunday murakkab jarayonni samarali tashkil etish har bir o'qituvchidan kasbiy kompetentlikka ega bo'lishni talab etiladi. Shu jumladan, ompetensiya so'zi lotincha "competo" so'zidan olingan bo'lib, "erishaman, muvofiqman, mos kelaman" degan ma'nolarini ya'ni kishi egallagan muayyan bilim, ko'nikma, malakalar majmuasini anglatadi. Bu tushuncha nisbatan yaqindan boshlab, 1960-yillarning oxiri va 1970-yillarning boshlaridan keng qo'llanila boshlandi.

Kompetensiya – ma'lum bir sohada samarali faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan mutaxassisning ta'limiy tayyorgarligiga qo'yilgan talabdir. U davlat ixtiyorida bo'lgan, oldindan belgilangan ijtimoiy talab bo'lib, u o'quvchi yoki muayyan shaxsning malum bir sohada samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan ta'limiy (professional) tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladi.

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim – o'quvchilarning egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish imkoniyatidir. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarini shakllantiradi. Bundan tashqari, ta'limda har bir o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda, shu fanning o'ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli xususiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

Kompetensiyali yondashuv, inson faoliyatida har tomonlama kompetenlilikni shakllantirish hozirgi zamon jamiyati va ta'limining asosiy sharti hisoblanadi. Bu talab o'qituvchi-pedagoglar faoliyatiga ham bevosita daxldordir.

Lingvometodik kompetensiya tushunchasi – bu o'qituvchining chet tilini samarali o'qitish uchun zarur bo'lgan til, metodologiya va pedagogik bilimlarning o'zaro bog'liqligini anglatadi. Uning chet til o'qitishdagi o'rni shundaki, bu kompetensiya o'qituvchiga tilni o'rganish jarayonini chuqur tushunishga, mos o'quv materiallarini tanlashga, darsni samarali tashkil etishga va o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi.

Lingvometodik kompetensiya tushunchasi o'z navbatida 3 ta kompetensiyaga bo'linadi. Ular quyidagilar:

1.Til kompetensiyasi: O'qituvchining o'zi o'qitayotgan tildagi leksik, grammatik, fonetik bilimlarining chuqur va mukammal darajada ekanligini bildiradi.

2.Metodik kompetensiya: O'qituvchining chet tilini o'qitish usullarini, o'qitishning eng samarali texnikalarini, darsni rejalashtirish va o'tkazish uslublarini bilishini anglatadi.

3.Pedagogik-psixologik kompetensiya: O'qituvchining o'quvchilarning yosh xususiyatlari, motivatsiyasi va o'quv jarayonidagi psixologik holatini tushunishi, o'quvchilarga individual yondashish va ularning o'qishini qo'llab-quvvatlash qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Lingvistik kompetensiyasi deganda esa til sistemasi haqidagi bilimga, lingvistik tafakkurga, yangi til vaziyatlarda bilim va ko'nikmalarini mustaqil qo'llash tajribasiga ega bo'lgan o'quvchining shaxsiy xislatlari tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, lingvistik

kompetensiya ijtimoiy hodisa va belgilar sistemasi sifatida til haqida, tilning qurilishi va funksiyalashishi haqidagi o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmasi hamda bulardan turli vaziyatlarda mahorati anglashiladi. Lingvistik kompetensiya o'quvchining ona tili fanining fonetika, leksika, frazeologiya, morfologiya, sintaksis, orfografiya, punktuatsiya singari bo'limlari haqidagi bilimlari, bu bilimlardan turli xil vaziyatlarda foydalanish malaka va ko'nikmasidir. Ona tili va adabiyotni o'qitishga kompetensiyaviy yondashuv bu o'qituvchi shaxsining yoshlarni til haqidagi bilimlarini oshirish bilan birgalikda, muammoli vaziyatlarda bu bilimlardan o'rinli va maqsadga muvofiq ravishda foydalana olish qobiliyatiga ega shaxs sifatida tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishdan iboratdir. Shuning uchun ham ona tili va adabiyot o'qituvchisining bosh vazifasi faqat bilimga ega yoshlarni tarbiyalash bilan cheklanmay, balki bu bilimlarga ega bo'lish bilan birgalikda yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarda o'rinli foydalana oladigan, malaka va ko'nikmasi rivojlangan shaxslarni tarbiyalashdan iboratdir. Demak, ta'limning barcha turlarida, xususan, tilga oid ta'limda kompetensiyaviylikni rivojlantirishga e'tibor qaratish barkamol avlodni tarbiyalashning tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qiladi.

Xorijiy tillarni o'rgatishda metodikaning o'rni katta rol o'ynaydi. Metodika bu o'qituvchining qanday dars o'tishini o'rganadi. Metodika tarixga oid adabiyotlarni chuqurroq o'rganish shuni ko'rsatadiki, ayrim tadqiqotchilar metodikani san'at deyдилar. Ular odatda fransuz metodisti Penlash fikriga ishora qiladilar., ya'ni "yaxshi" yoki "yomon" metod yo'q, aksincha "yaxshi" yoki "yomon" o'qituvchilar bor. Bunday fikrdagi kishilarga nemis metodisti E.Ottoning 1924-yilda bayon qilingan fikrlari bilan javob berish mumkin. U jumladan shunday deydi: "Agar kimki metodikani san'at deb hisoblar ekan, u fan nazariyasini uning amalda qo'llanishi bilan qorishtirib yuboradi" Har bir fanda o'z tushunchalar yig'indisi mavjud. Xorijiy til o'qitish metodikasida qabul qilingan asosiy tushunchalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: talim sistemasi, ta'lim metodi, ta'lim prinsipi, ta'lim vositasi, metodik usul.

Xorijiy til o'qitish metodi- deyilganda xorijiy til o'rgatishning amaliy, umumta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvni ta'minlovchi muallim va o'quvchi faoliyatining majmuasi tushuniladi. Metod atamasi "ta'lim usullari yig'indisi" va "talimning yo'nalishi" ma'nolarida qo'llanadi. Birinchisi ta'lim nazariyasida jarayon metodlar ma'nosida ishlatilsa, ikkinchi ma'noda uni o'qitish metodikasi tarixiga oid asarlarda uchratishimiz mumkin. Masalan, xorijiy til o'qitishning tarjima metodi, to'g'ri metod, ongli-qiyosiy metod, an'anaviy metod, intensiv metod va boshqalar hisoblanadi. xorijiy til o'qitish metodikasi didaktika bilan uyg'un, o'zaro bog'langan holda rivojlanib kelgan. Barcha o'quv fanlarining o'qitish nazariyalari didaktika faniga asoslanishi, undan ilmiy ozuqa olishi shubhasiz barchamizga ma'lum. Xorijiy til o'qitish ham didaktikaga asoslanadi. Didaktika ta'limning umumiy nazariyasi, metodika muayyan o'quv predmetini o'qitish ilmi, lingvodidaktika tillarni o'qitish umumiy nazariyasi, lingvometodika aniq bir tilni o'qitish ilmi sifatida qaraladi. Bugungi kunda malum bir tilni o'rganish, o'rgatish uni hayotimizga tatbiq etish jarayonida lingvometodik kompetensiyalarning o'ziga xos bo'lgan o'rni mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

1.Dars samaradorligini oshirish: Lingvometodik kompetensiyaga ega o'qituvchi darsni qiziqarli va samarali tashkil eta oladi, har bir o'quvchining o'zlashtirish darajasiga mos keladigan mashqlarni tanlaydi va ularga to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatadi.

2.O'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish: O'qituvchi o'quvchilarning qiziqishini uyg'otuvchi va ularni til o'rganishga undovchi turli usullardan foydalanadi, bu esa o'quvchilarning o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi.

3.Ko'nikmalarni rivojlantirish: Ushbu kompetensiya o'qituvchiga o'quvchilarning to'rtta asosiy ko'nikmasini (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish) rivojlantirishda yordam beradi, ularni bir-biri bilan bog'lab, uyg'unlashgan holda o'qitishni ta'minlaydi.

4.O'qitish jarayonini baholash: O'qituvchi o'quvchilarning yutuqlarini to'g'ri baholay oladi, ularning kamchiliklarini aniqlaydi va ularni bartaraf etish uchun tegishli choralar ko'radi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Akbari, Z. (2014). The role of grammar in second language reading comprehension: Iranian ESP context. *Procedia-Social and Behavioral Sciences*, 98, 122-126.

2. Andrews, R. Torgerson, C. Beverton, S. Freeman, A. Locke, T. Low, G. & Zhu, D. (2006). The effect of grammar teaching on writing development. *British Educational Research Journal*, 32(1), 39-55.

3. Vahobov M.M. Kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlarini joriy etish – zamonaviy ta'lim paradigmasi sifatida // “Zamonaviy ta'lim” j. – 2016 yil №6. – 3-10-betlar

4. Safarova R.G., Umaraliyeva M. O'qituvchilarning hamkorlikdagi pedagogik jarayonni loyihalash kompetentsiyalarini rivojlantirish // “Xalq ta'limi” jurnali – Toshkent, 2016 yil №5. - 19-20-betlar.

5. Nusratova, K. C. (2021). RELEVANCE OF THE TOPIC OF WAR IN UZBEK CHILDREN'S LITERATURE (ON THE EXAMPLE OF THE WORK OF THE WRITER SAFAR BARNOEV). *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 740-745. 9. Nusratova, H. (2021, O